

O'ZBEKISTONDA TARJIMA QILINGAN ASARLARNING AHAMIYATI

Bahodirova Saodatoy: Andijon davlat chet tillari instituti, ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti, tarjima nazariyasi va amaliyoti: ingliz tili
1-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Axmedova Muhayyo
Andijon davlat chet tillari instituti, Gid hamrohligi, madaniyatlararo, muloqot va tarjimashunoslik kafedrasida o'qituvchisi.

Annotatsiya: Bugungi kunda jahon adabiyotlari keng tarqalmoqda. Shuningdek, hali o'zbek tiliga tarjima qilinib ulgurmagan asarlar juda ko'p bo'lsa-da, biz yoshlar o'qib tugatolmay qolayotganimiz bor gap. Jahon adabiyoti aynan tarjima orqali o'zbek xalqiga kirib kelgan ekan, bunda tarjimaning ham, tarjimonlarning ham ahamiyati juda ham kattadir. Turli millatlarning asarlarini o'qish orqali har bir o'quvchi o'zida yangi ko'nikmalarni rivojlantirmoqda. Asosiy maqsad esa, boshqa xalqlarning asarlarida yozgan hayot tarzi, o'zbek asarlarida aks etgan o'zbek xalqining hayot tarzi bilan solishtirilishidir. Tarjima asarlari nafaqat badiiy yoki ilmiy mazmunga ega, balki ular xalqlar o'rtasidagi xalqaro madaniy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy aloqalarni aks ettiruvchi manbalar hamdir.

Kalit so'zlar: adabiyot, san'at, madaniyat, tarjima, tarjimon, jahon adabiyoti, psixologiya, pedagogika, iqtisod, nazariya, madaniy filtrlash, Daniel Kiz, tarixiy asarlar, iqtisodiy hamkorlik, Sharq va G'arb xalqlari.

Tarjima jarayoni millatlar va madaniyatlar o'rtasidagi eng muhim ko'priklardan biridir. Vatanimiz tarixida ham tarjima faoliyati adabiyot, ilm-fan, san'at va madaniyatning yuksalishida alohida o'rin tutgan. Xususan, XX asrdan boshlaridan boshlab jahon adabiyotlarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi natijasida kitobxonlarning dunyoqarashi kengayib, yangi g'oyalar va ilmiy-badiiy yondashuvlar kirib keldi. Ayniqsa, mustaqillikdan so'ng ushbu jarayon yanada rivojlandi: xalqaro ilmiy va badiiy adabiyotlarni, avval mavjud bo'lmagan, o'zbek tilida o'qish imkoniyati hamda tarjimonlik maktablari paydo bo'ldi.

Tarjimada bir tildan ikkinchi tilga o'tkazilgan so'zlarni emas, balki madaniyat, urf-odat va o'sha xalqlarning jamiki hayot tarzi yoritiladi. Bunday ma'lumotlar berilgan asarlar har qanday o'quvchining dunyoqarashini hamda qiziqishlarini orttiradi, va vaqtiki kelib ular bilan suhbatlashgudek bo'lsa, qiyinchiliksiz muloqot

qilishiga turtki bo'ladi. Bundan tashqari, Sharq va G'arb madaniyati, adabiyotini solishtirish imkonini beradi.

Ko'pchilik olimlar, O'zbekistonda ilm-fan rivojini tarjimaga bog'laydilar. Ba'zan, o'zbek yozuvchilarining jahon adabiyotidagi yuksak tajribalarni ko'rib, o'z ijodida tatbiq etishgani ko'zga tashlanadi. Bu - o'rganish deyiladi. Zamonaviy ilmiy nazariyalar, bir qancha fanlar - psixologiya, pedagogika, iqtisod, biologiya, siyosatshunoslik - tarjima orqali o'zbek auditoriyasiga kirgan.

Tarjima bir ma'noda xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlaydi. Bular, asosan, tarixiy asarlar, memuarlar, ilmiy izlanishlar, sayohatnomalar, romanlar va davlat arboblarning nutqlarida namoyon bo'ladi. Masalan, tarixiy asarlarda turli davlatlar, imperiyalar yoki xalqlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy hamkorlik, savdo yo'llari, nizolar va kelishuvlar haqida hikoya qiladi. Shuni ham aytish kerakki, aksar asarlarda turli millat vakillarining o'zaro tanishuvi, do'stligi, to'qnashuvi yoki hamkorligi go'zal ravishda tasvirlanadi.

Sharq va G'arb xalqlari orasida mentalitet hamda din tushunchalarida farqlar mavjud. Shu sababli, bugungi kundagi tarjimalarda qisman buzilishlar kuzatilmoqda. Sharqda sir tutiladigan ba'zi narsalar G'arb xalqlarida ochiqroq tasvirlanadi. Mana shunday jarayonlar filtrlanmagan holatda o'zbek tiliga tarjima qilinayotganini ko'proq Amerika tarjimalarida ko'rishimiz mumkin. Masalan, Daniel Kizning "Eljernonga atalgan gullar" asarida ayol va erkak o'rtasidagi aloqalar juda ochiq ko'rsatilgan. Bu hol ularning hayotida normal bo'lishi mumkin, lekin O'zbekistonga, xususan, yoshlarga umuman to'g'ri kelmaydi. Bunday hollarda madaniy filtr qo'llanilishi kerak. Tarjimonlardan bu xususda ehtiyot bo'lishlarini so'rab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Karimov Tarjima nazariyasi va amaliyoti - Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
2. Mirtemir. Shekspir tarjimalari - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980.
3. S. Bassnet Translation Studies - London: Routledge, 2002.
4. W. Shakespeare Hamlet, Romeo and Juliet (o'zbekcha tarjimalari) - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1950-2010.
5. U. Alimov O'zbekistonning xalqaro madaniy aloqalari - Toshkent Universitet, 2020.
6. M. Jo'rayev - Bugungi tarjima jarayonining dolzarb masalalari - Filologiya masalalari - 2020.
7. Axmedova, M., & Maxmudova, G. (2024). TARJIMADA IBORALARNING EKVIVALNETLIGI. XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR, 1(1), 182-183.
8. AXMEDOVA, M. (2024). TARJIMADA USLUB VA O'RTA TARJIMANING TA'SIRI. *News of the NUUZ*, 1(1.6. 1), 281-284.